JADID ADABIYOTIDA VATAN VA MILLAT MOTIVLARINING ADABIY-BADIIY TALQINI

Xudoyberdiyeva Madina
Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-kus magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi o'zbek jadid adabiyotining shakllanishi, undagi obrazlar tizimining evolyutsiyasi va badiiy-falsafiy asoslari tahlil qilingan. Jadid shoir va adiblari ijodida milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik hamda ijtimoiy-siyosiy islohotlar g'oyasining badiiy in'ikosi ko'rib chiqiladi. Mustaqillik davri adabiyotshunosligida jadidshunoslikning o'rni va ilmiy tadqiq etilish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, obrazlar tizimi, milliy uyg'onish, Turkiston, ma'rifatparvarlik, Cho'lpon, lirik qahramon, ramz, ijtimoiy-siyosiy she'riyat, mustaqillik davri adabiyotshunosligi**.**

Аннотация: В данной статье анализируются становление узбекской литературы джадидизма начала XX века, эволюция системы образов и её художественно-философские основы. Рассматривается художественное отражение идей национального возрождения, просветительства и социально-политических реформ в творчестве джадидских поэтов и писателей. Освещены роль джадидоведения в литературоведении периода независимости и этапы его научного исследования.

Ключевые слова: джадидизм, система образов, национальное возрождение, Туркестан, просветительство, Чулпан, лирический герой,

символ, социально-политическая поэзия, литературоведение периода независимости.

Annotation. This article analyzes the formation of Uzbek Jadid literature at the beginning of the 20th century, the evolution of its system of images, and its artistic and philosophical foundations. It examines the artistic reflection of ideas concerning national awakening, enlightenment, and socio-political reforms in the works of Jadid poets and writers.. The role of Jadid studies in the literary criticism of the independence period and the stages of its scientific research are highlighted.

Keywords: Jadidism, system of images, national awakening, Turkestan, enlightenment, Cholpon, lyrical hero, symbol, socio-political poetry, literary studies of the independence period.

Kirish. XX asrning bo‘sag‘asidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayoti millat taqdirida tub burilish yasagan davr sifatida tarixga muhrlandi. Bu davrda yuzaga kelgan ijtimoiy siljishlar va milliy uyg‘onish jarayonlari o‘zbek adabiyotining badiiy-falsafiy qiyofasini butunlay o‘zgartirib yubordi. Ma’rifatparvar jadidlar tomonidan ilgari surilgan islohotchilik g‘oyalari adabiyotni shunchaki ko‘ngilochar vositadan millatni uyg‘otuvchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi qudratli kuchga aylantirdi. Jadidchilik harakati jamiyatni jaholat botqog‘idan qutqarish va uni jahon taraqqiyoti sari yetaklashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu intilishlar adabiyotda mutlaqo yangi qahramon tipining paydo bo‘lishiga xizmat qildi. Endilikda adabiy asar markazida taqdirga tan bergan ojiz kishi emas, balki hayotning murakkab ziddiyatlarini tahlil qiluvchi, millat dardi bilan yashovchi va ijtimoiy faollikka intiluvchi shaxslar namoyon bo‘la boshladi.

Adabiyotlar tahlili. XX asrning 80-yillari oxiri va O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab, jadid adabiyotini o‘rganishda yangi bir

bosqich — xolis ilmiy baholash davri boshlandi. Ilgari mafkuraviy tazyiqlar ostida "aksilinqilobiy" yoki "burjua millatpari" deb tamg'alangan jadid bobolarimiz merosi milliy istiqlol g'oyalari asosida qayta tadqiq etila boshlandi. O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov, B.Qosimov kabi zabardast olimlar jadid ijodkorlarining shaxsiyati va boy adabiy merosini oqlash, ularning asarlarini asl holida xalqqa qaytarish yo'lida ulkan jasorat ko'rsatdilar. Ularning sa'y-harakatlari bilan jadidchilik shunchaki tarixiy oqim emas, balki milliy g'urur manbayi sifatida e'tirof etildi. H.Boltaboev, Sh.Rizaev, D.Quronov, N.Jabborov va boshqalar jadid adabiyotini faqat tarixiy emas, balki chuqur ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan o'rganishga kirishdilar.

Muhokama va natijalar. Jadid adabiyotining o'zagi bo'lgan she'riyatda obrazlar tizimi shunchaki lirik kechinma emas, balki Turkiston o'lkasining tarixiy taqdiri, bugungi ayanchli ahvoli va yorug' ertasi haqidagi badiiy mushohadalar majmuiga aylandi. Jadid shoirlari voqelikni ratsional (ongli) idrok etish orqali millat qismatini tubdan o'zgartirishga xizmat qiluvchi o'ziga xos timsollar silsilasini yaratdilar. Bu davr she'riyatining o'ziga xosligi shundaki, unda sof ishqiy-lirik tuyg'ulardan ko'ra, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy-tashviqiy ohanglar ustuvorlik qildi. Shoirlar qalamiga mansub obrazlar zamirida quyidagi konseptual yo'nalishlar yotadi:

1. Millat va Vatan timsoli: Jadidlar ijodida Vatan endi faqat chiroyli bog'-rog'lar emas, balki "asoratda qolgan ona", "xarobaga aylangan muqaddas zamin" sifatida gavdalandi. Millat esa g'aflat uyqusida yotgan, uyg'otishga muhtoj ulkan bir kuch sifatida tasvirlandi. Masalan, Hamza:

Bu Nihon qon yig'layur millat uchun laylu nahor,
Yoz o'tub, qish keldi holo, bizga bo'lgan yo'q bahor,

Sarsari bodi jaholat qilmak istar toru mor,
Chora shul: maktab ochaylik, shoyad o'lsun sabzalar,
Ey musulmonlar, qachon bir darda darmon istariz?
Millata shavkat, taraqqiy, sha'nu davron istariz –

der ekan, uning ortida millat va xalq kelajagi uchun iztirob chekayotgan shoir shaxsiturganini ilg'ash qiyin emas. Darhaqiqat, Hamza o'z fikr-qarashlarini obrazli ifoda va ramzlar orqali talqin etadi. She'rdagi "yoz", "qish", "bahor" kabi yil fasllarini anglatuvchi so'zlar shoirning ijodiy niyatiga ko'ra ramziy ijtimoiy-ma'rifiy ma'no tashiydi. Nihon (Hamza) tunu kun qon yig'lashi zamirida qadimiy adabiy an'ana ("Alp Er To'nga" marsiyasi, "Qish va yoz" munozarasi, O'rxun-Enasoy toshbitiklari) da kuzatilgan Vatan va millat dardida chekilgan achchiq iztirob va alamli nolalar turadi.[1]

2. Ziyo va Jaholat ziddiyati: She'riyatda "nur", "tong", "quyosh" kabi obrazlar ilm va taraqqiyotni ifodalasa, "zulmat", "tun", "zanjir" kabi timsollar mustamlaka va qoloqlik ramzi bo'lib xizmat qildi. Avloniyning "Mardikorlar ashuvlasi" (1916) asarida o'g'lini front orqasi – mardikorlikka jo'natayotgan, islomiy e'tiqodi mustahkam ota-onaning iztirobnolalari, umid-iltijolari, farzandning esa ota-onasi va sevimli yori bilan xayrlashuv oldidagi mahzun kayfiyat-hollari, shuningdek olis o'lkalardagi og'ir va mashaqqatli hayoti aks etgan. Ota mardikorlikka ketayotgan o'g'liga qarata:

G'am yema, o'g'lum, qaro kunlar ketub oq kun chiqar,
Yerga nam, qo'rqunch bulutlar ketub, oydin chiqar...
Mehribonlardan ayilding, bo'lma Hijron, ey bolam,

[1] Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – Б. 104-105

Ham Vatandan ayrilib, sen diydagiryon, ey bolam.[2]

3. Pessimistik va Optimistik kayfiyatlar qorishiqligi: Jadid she'riyatida ba'zan tushkun va umidsiz ohanglar uchrashi tabiiy hol edi. Bu holat millatning o'sha davrdagi ayanchli ijtimoiy ahvoli va chorizm tazyiqining badiiy aksidir. Biroq, bu tushkunlik ortida doimo millatni uyg'otishga bo'lgan isyonkor ruh va kelajakka bo'lgan mas'uliyat tuyg'usi yashiringan edi. Ona yurtining ayanchli ahvoliga toqat qila olmagan Cho'lpon poetik tasvirning haqqoniy va badiiy ifodaning ta'sirli bo'lishini ta'minlagan. Uning lirik qahramoni: "Nega?", "Bu nega?", "Nima uchun?", "Qaerda?" kab savollar og'ushida fikriy uyg'onishga da'vat etib, ruhan erkka chorlovchi, dilni o'rtaguvchi savollarni takror
va takror o'rtaga tashlaydi:

Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yanchalar?
Nega sening qalin tovshing "ket" demaydi ularga? ...
Nima uchun ko'zlaringda tutashguvchi olov yo'q?
Nima uchun tunlaringda bo'rilarning qorni to'q?[3]

Jadidchilik faqatgina Turkiston hududi bilan cheklanib qolmay, butun turkiy dunyo ma'rifatparvarlarini yagona g'oyaviy bayroq ostida birlashtirdi. Bu mushtaraklik ayniqsa she'riyatda — shoirlarning dard-iztiroblari, millat qayg'usi va uyg'onishga bo'lgan otashin chorlovlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Turkiy xalqlar jadid shoirlari ijodida lirik qahramonning ruhiy olami "umid va umidsizlik" kabi ikki qutb orasida tebranib turadi. Ushbu ruhiy uyg'unlikni o'zbek shoiri Cho'lpon va qozoq adibi Magjan Jumaboyev ijodi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Cho'lponning "Qalandar ishqi" she'ridagi:

[2] Абдулла Авлоний.Танланган асарлар. Икки жилдлик. Ж.1. – Т.: Маънавият, 2020. – Б. 218-221

[3] Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. Ж.1 – Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. – Б.34

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku.[4]

Ushbu satrlar shunchaki shaxsiy ishqiy kechinma emas, balki Vatan ishqida yongan, millat ozodligi yo'lida sarson bo'lgan ziyolining ramziy talqinidir. Bu yerdagi "yo'l yo'qotish" — ijtimoiy turg'unlik va mustamlaka asoratidagi millatning chorasizligiga ishoradir. Bu tuyg'u Magjan Jumaboyevning: "*Mening yo'lim bor edi, / Hozir mamlakat yo'q, yo'l yo'q*[5]" degan misralari bilan hayratlanarli darajada hamohanglik kasb etadi. Har ikki shoir ham bir xil ijtimoiy fojiadan — milliy mustaqillikning yo'qligi va erk yo'lidagi to'siqlardan azob chekadi.

Cho'lpon "kulayotgan qamchi", "o'layotgan umid", "tomchilayotgan qon", "qorni to'q bo'ri", "og'u-o'q" singari buzg'un bir ahvol-kayfiyat ifodalovchi obrazlar qarshisiga ularning ziddi bo'lgan "qalin tovush", "erkli ko'ngil", "ko'zdagi olov", "o'ch buluti", "sel", "kuch tangrisi" kabi erk va ozodlik ramzi bo'lgan obrazlarni qo'yadi.[6] Lirik qahramon umidsizlikka tushmaydi. Aksincha, elning so'ngan umidlarini qayta jonlantirishga intiladi. Yovlarni quvish, mard va jasur bo'lishga chorlaydi:

Nima uchun yovlaringni bir zamon
Yo'q qilg'unday temirli o'ch yo'q senda?
Ey, har turli qulliklarni sig'dirmagan hur o'lka,
Nega sening bo'g'izingni bo'g'ib turar ko'lanka?

[4] Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. Ж.1 – Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. – Б6

[5] https://almatylit.ucoz.ru/publ/13-1-0-255

[6] Қосимов Б. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 279

Xulosa. XX asr boshidagi o'zbek jadid adabiyoti shunchaki badiiy hodisa emas, balki millatning ijtimoiy-siyosiy uyg'onish ko'zgusi bo'lib xizmat qildi. Ushbu davr she'riyatida shakllangan obrazlar tizimi an'anaviy lirik qoliplardan chiqib, milliy ozodlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orildi. Jadid ijodkorlari tomonidan yaratilgan "yangi inson" tipi — hayotga teran nigoh bilan boquvchi, millat dardini o'zining shaxsiy qayg'usi deb biluvchi va jaholatga qarshi ilm bilan kurashuvchi faol shaxs sifatida namoyon bo'ldi. Cho'lpon, Hamza va Avloniy kabi adiblar qo'llagan ramziy timsollar — "tong", "quyosh", "zanjir" va "zulmat" kabi obrazlar o'sha davr turkiy xalqlari uchun umumiy bo'lgan hurlik sog'inchi va mustamlaka azobini badiiy ifodalab berdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – Б. 104-105
2. Қосимов Б. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 279
3. Абдулла Авлоний.Танланган асарлар. Икки жилдлик. Ж.1. – Т.: Маънавият, 2020. – Б. 218-221
4. Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. Ж.1 – Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. – Б.34
5. Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. Ж.1 – Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. – Б6
6. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.